

**BUGUNGI MAS'ULIYATLI TALABA-ERTANGI MAS'ULIYATLI  
PEDAGOG**

*Abdullayeva Nasibaxon Jo'rayevna  
p.f.d., ADU professori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishining mazmuni, mahoratli pedagogga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, jamiyat talablari, pedagogik mahorat, yuksak darajadagi madaniyat, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, odob-ahloqli qalb egasi, g'oyaviy hazinasi, kasbiy faoliyat.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается содержание педагогического мастерства будущего учителя и требования к квалифицированному педагогу.

**Ключевые слова:** педагогические способности, педагогическая техника, потребности общества, педагогическое мастерство, высокая культура, национальная педагогика, национальные ценности, обладатель нравственной души, идейный клад, профессиональная деятельность.

**Abstract.** This article discusses the content of future teachers' pedagogical skills and the requirements for a skilled pedagogue.

**Key words:** pedagogical ability, pedagogical technique, society's requirements, pedagogical skill, high-level culture, national pedagogy, national values, owner of moral soul, ideological treasure, professional activity

Jahonda bo'lajak mutaxassislar, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asoslangan yondashuvlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Pedagogika yo'nalishi ta'lim jarayonida kasbiy amaliyotga motivatsion yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishda moclashuvchan yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarda kasbiy mahorat hamda kompetentsiyalarni rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida talabalarining pedagogik-psixologik bilimlarini tizimli rivojlantirish, kasbga oid kompetentsiyalarini takomillashtirish orqali faoliyatga maqsadli tayyorlash bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Pedagogik mahortaning yuqori darajacini ta'minlaydigan yondashuvlar, texnologiyalar va innovatsion usullaramaliyotga faol qo'llashga ustuvorlik berilmoqda.

YuNESKO tomonidan belgilangan 2030 yilgacha barqaror rivojlanishning aniq maqsadlari doirasida ta'limga oid dasturlarni takomillashtirish, ularning ochiqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [186]. Jumladan, pedagoglik kasbini tanlagan talabalarda kasbiy-axloqiy madaniyat, etika, mas'uliyat va javobgarlikka oid ta'lim manbalarini yangiliklar bilan boyitish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Shu o'rinda bo'lajak o'qituvchini maktab amaliyotiga tayyorlashda kasbiy kometentsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan pedagogik mas'uliyatni shakllantirish muammolarini kompleks o'rganish va zarur echimlarni topishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish muhim o'rin egallamoqda.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga dars jarayonida o'qituvchilar irodali bo'lish, erkin va mustaqil fikrlash, javobgarlikni his qilish kabi fazilatlarni

singdirish bilan bir qatorda o‘z xatti-harakatlarini boshqarishda mas’uliyatni his qilishlari haqida umumiy tushunchalar beriladi. Biroq ta’lim muassasalari talabalarida javobgarlik va mas’uliyatdek zarur fazilatlarni tarbiyalovchi maxsus dastur va kontseptsiyalar yo‘qligi muammoga jiddiyroq e’tibor qaratish ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatdi.

Yoshlarning mehnat bozori uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, har tomonlama kamol topishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ularning bevoqifliklarini ham ta’minlamoqda. Shunday sharoitda talabalarning kasbiy, shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida mas’uliyat hiccini tizimli, maqsadli rivojlantirib borish ularning pedagogik faoliyati yanada takomillashib borishi uchun imkon yaratadi. Shu sababli pedagogik mas’uliyat uzluksiz ta’lim samaradorligini oshirish, davlat va millatning barqaror rivojlanishida ta’limning hal qiluvchi omili ekaniga bog‘liq ravishda tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muhim muammolardan biri ekani ayni haqiqatdir.

Mas’uliyat shaxsiy xususiyat sifatida inson faoliyatida o‘ziga-o‘zi talab qo‘ya olishdek muhim fazilatdir. Agar bu sifat etarlicha rivojlangan bo‘lmasa, inson qaysi kasb egasi bo‘lmasin, u muvaffaqiyat qozona olmaydi, aksincha uning faoliyati samarasiz bo‘ladi. V.Frankl “erkinlik mas’uliyat bilan uyg‘un bo‘lmaca, o‘zboshimchalikka aylanishi mumkin”, degan fikrni ilgari surgan .

Ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘ljak o‘qituvchi kasbiy fazilatlar egasi bo‘lishi har tomonlama samarali natijani kafolatlaydi.

O‘qituvchining kasbiy fazilatlarini quyidagilar:

- ijtimoiy mas’uliyat;
- jamiyat muammolarini mas’uliyat bilan hal etish;
- o‘quvchilarni ardoqlash;
- kelajakka ishonch;
- adolat;
- ijtimoiylik;
- o‘ziga va o‘quvchilarga nisbatan talabchanlik;
- o‘z ishiga tanqidiy baho berish;
- vijdonlilik, roctgo‘ylik;
- tashabbuskorlik;
- irodalilik;
- javobgarlik hissi;
- ustunlik;
- ijodkorlik;
- aql-idrok va boshqalar.

Bundan ko‘rinadiki, pedagog faoliyatida mas’uliyat eng muhim scifatlardan biridir.

Mas’uliyat axloqiy kategoriya cifatida bo‘ljak o‘qituvchining qaror qabul qilish va chora ko‘rish, o‘z faoliyati va o‘zgalar faoliyatini boshqarish, bilim berish va baholashda javobgarligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Mas’uliyatli bo‘lish talabaning mustaqillikni o‘z zimmasiga olishi, adolatli bo‘lishi, o‘ziga ishonch va jarayonni munosib baholashini taqozo etadi.

O‘tmish allomalari ham inson hayoti davomida bajarishi, amal qilishi shart bo‘lgan shunday vazifalar borligi, ular mas’uliyat hamda javobgarlikni talab qilishi haqida qimmatli fikrlarni bayon qilganlar.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida mas’uliyatni shakllantirish muammosi har bir inson uchun, jamiyat taraqqiyoti va farovonligi, ayniqca, ustoz-murabbiylarning farzandlar tarbiyasidagi faoliyatining muhim sharti ekani haqidagi g’oyalar ilgari surilgan.

Mas’uliyat o’zi va atrofdagilar, jamoa a’zolari oldida javobgarlikni zimmaciga olish, javobgarlik me’yorini bajarish, boshqaruvchanlik xarakterini namoyon qila olish. Bugungi yoshlar Vatanimiz kelajagidir, ulug’vor maqsadlarga erishishga tayyorlanayotgan ushbu kadrlar mas’uliyatni doim his etmog’i kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha me’yoriy hujjatlari. 1- qism. Toshkent, 1998 yil.
2. Qo‘qon Davlat pedagogika institutida pedagogik amaliyotni o‘tkazish haqida yo‘riqnoma. Qo‘qon, 2003 yil.
3. Ashurov R.A., Zufarova M.E. va boshq. Pedagogik amaliyot bo‘yicha talabalarga metodik-amaliy yordam. Farg‘ona nashriyoti, 1993 yil.
4. Shobekova M., To‘raqulova F., Isoxonova M.. Pedagogik amaliyot davrida psixologiyadan beriladigan topshiriqlar. Qo‘qon, 2004 yil.
5. Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. Toshkent, 2003 yil.
6. Ashurov R., Icmoilova D., To‘raqulova F., Yucupova M., Usmonova M. Pedagogik amaliyot (o‘quv-uchubiy qo‘llanma). –T.: Fan va texnologiya, 2005yil.